

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI HUZURIDAGI  
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/30.12.2020.1.16.02 RAQAMLI  
ILMIY KENGASH**

---

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI**

**AKRAMOVA NAZOKAT ISRAILOVNA**

**AKSIYADORLIK JAMIYATLARI SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA  
KORPORATIV MADANIYATNI RIVOJLANTIRISH**

**08.00.13 – Menejment**

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2024**

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati  
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)  
по экономическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)  
in economic sciences**

**Акramova Nazokat Israilovna**

Aksiyadorlik jamiyatlari samaradorligini oshirishda korporativ madaniyatni rivojlantirish..... 3

**Акramова Назокат Исраиловна**

Развитие корпоративной культуры в повышении эффективности акционерных обществ..... 25

**Акramova Nazokat Israilovna**

Development of corporate culture in increasing the efficiency of joint stock companies..... 47

**E'lon qilingan ishlar ro'yxati**

Список опубликованных работ

List of published works..... 51

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI HUZURIDAGI  
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/30.12.2020.1.16.02 RAQAMLI  
ILMIY KENGASH**

---

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI**

**AKRAMOVA NAZOKAT ISRAILOVNA**

**AKSIYADORLIK JAMIYATLARI SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA  
KORPORATIV MADANIYATNI RIVOJLANTIRISH**

**08.00.13 – Menejment**

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2024**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiyasi komissiyasi tomonidan B2023.2.DSc/Iqt512 raqam bilan ro'yxatga olingan.**

Dissertatsiya Toshkent davlat iqtisodiyot universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida ([www.tsue.uz](http://www.tsue.uz)) va «Ziyonet» axborot-ta'lim portalida ([www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:** **Karlibayeva Raya Xojabayevna**  
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Rasmiy opponentlar:** **Yo'ldoshev Nuriddin Qurbonovich**  
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Iminova Nargiza Akramovna**  
iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

**Yetakchi tashkilot:** **Toshkent arxitektura-qurilish universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2020.1.16.02 raqamli ilmiy kengashning 2024 yil "23" 01 soat 16:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi. Manzil: 100066, Toshkent shahri, Islom Karimov ko'chasi, 49. Tel.: (99871) 239-01-49; faks: (99871) 239-41-23; e-mail: [tdu@tsue.uz](mailto:tdu@tsue.uz)

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining kutubxonasida tanishish mumkin (1386 raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100066, Toshkent shahri, Islom Karimov ko'chasi, 49 uy. Tel.: (99871) 239-28-75; faks: (99871) 239-28-75; e-mail: [tdu@tsue.uz](mailto:tdu@tsue.uz)

Dissertatsiya avtoreferati 2024-yil "12" 01 kuni tarqatildi.  
(2024-yil "11" 01 dagi 3 -raqamli reyestr bayonnomasi).



**G.Q. Abduraxmonova**  
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy  
kengash raisi, i.f.d., professor

**O.D. Djurabaev**  
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy  
kengash kotibi, PhD, dotsent

**Sh.Dj. Ergashodjaeva**  
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy  
kengash qoshidagi Ilmiy seminar  
raisi o'rinbosari, i.f.d., professor

## KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahonning rivojlangan mamlakatlarida korporativ madaniyatni rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Korporativ madaniyatdagi ijobiy yo'nalishlarni takomillashtirish, har bir tadbirkorlik subyektining boshqaruv ko'nikmalarini yaxshilashga va shu orqali, hatto o'zgaruvchan tashqi muhit sharoitlarida ham korxonaning samaradorligini oshirish imkonini beradi. Bugungi kunda aksiyadorlik jamiyatlarida biznes tuzilishlarining turli xil shakllarining rivojlanishi tufayli kelib chiqqan ijtimoiy va madaniy o'zgarishlarni anglash, turli ijtimoiy-madaniy muhitlarda korporativ madaniyatning shakllanish xususiyatlari bo'yicha tadqiqotlar olib borish zarurati ortib bormoqda. 2020 va 2022-yillarda jahon miqyosidagi kompaniyalarda o'tkazilgan so'rovlarga asoslanib, Ethisphere instituti ikki yil ichida korporativ madaniyati mustahkamlandi degan xulosaga keldi. Shunday qilib, 2022-yilda korporativ axloqiy tamoyillar to'g'risida xabardorlik darajasi saqlanib qoldi: 2020-yilda respondentlarning 91,8 % ular haqida bilishgan, 2022-yilda so'rov ishtirokchilarining 91,7 % kompaniyalarda haqiqatan ham ishlaydigan korporativ kodeksi haqida xabardor va 2022-yilda 92,8 % monitoring tizimining mavjudligi va etika buzilishi haqida xabar berish qobiliyati mavjudligi aniqlangan. 2022-yilda 64% kompaniyalarda korporativ madaniyat standartlari asosida ish olib borilgan<sup>1</sup>.

Global korporatsiyalar yangi dunyo tartibini shakllantirishning asosiy elementlaridan biridir. Dunyodagi eng yirik 100 iqtisodiyotning 52 tasi transmilliy korporatsiyalar (TMK), qolganlari davlatlardir. Tashqi savdoning 2/3 qismidan ko'prog'i va global sanoat ishlab chiqarishining qariyb yarmi TMKlarga to'g'ri keladi. Ular texnologik yangiliklar va nou-xaularning taxminan 80 foizini nazorat qiladi<sup>2</sup>. Transmilliy korxonalarining yuqori daromad olish bilan bog'liq iqtisodiy manfaatlari ko'pincha o'z milliy davlatlari chegaralarida yashovchi odamlarning ijtimoiy farovonligi haqida g'amxo'rlik qilishdan ustun turadi. Hozirgi vaqtda globallashtirish jarayonlari korporativ madaniyatning rivojlanishiga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Transmilliy korporatsiyalar integratsiyalashgan jahon iqtisodiyotida iqtisodiy faoliyatning asosiy tashkilotchilariga aylanmoqda.

O'zbekistonda faoliyat ko'rsatayotgan aksiyadorlik jamiyatlarida korporativ madaniyat nizolarni hal qilishning muhim manbasi va vositasi bo'lib, ular uchun yagona qadriyatlar tizimini yaratish sohasidagi siyosat aksiyadorlik jamiyatlari ichidagi nizolarning oldini olish bo'yicha ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishning asosiy yo'nalishiga aylanmoqda. Ushbu holatlar aksiyadorlik jamiyatlari korporativ madaniyatining xususiyatlarini qiyosiy tahlil qilishning dolzarbligi va amaliy ahamiyatini belgilaydi. Bunday tadqiqotlar natijalari O'zbekistonda o'z faoliyatini amalga oshirayotgan aksiyadorlik jamiyatlarida ijtimoiy-madaniy nizolarning oldini olishning dalillarga asoslangan tamoyillarini ishlab chiqish va ularga bo'ysunishning muhimligini ko'rsatadi. Biroq, korporativ madaniyatning

---

<sup>1</sup> <https://www.kommersant.ru/doc/5902068>

<sup>2</sup> Yevropa iqtisodiy hamkorlik va rivojlanish tashkiloti (OECD) 2018 yil hisoboti asosida muallif tomonidan tuzildi. <https://www.oecd.org/industry/ind/MNEs-in-the-global-economy-policy-note.pdf>

mohiyati, tuzilishi, funksiyalari va xususiyatlarini o'rganishga juda ko'p ishlar bag'ishlangan bo'lsa, biroq uning iqtisodiy samaradorligini baholashga yetarlicha e'tibor berilmagan. Korxonani boshqarish doirasida uning samaradorligini oshirish uchun korporativ madaniyatni o'zgartirish masalalari hali ham yaxshi o'rganilmagan. Bu esa mavzuning dolzarbligini belgilaydi.

Dissertatsiya tadqiqoti O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015-yil 24-apreldagi PF-4720-son "Aksiyadorlik jamiyatlarida zamonaviy korporativ boshqaruv uslublarini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 2020-yil 27-oktabrdagi PF-6096-son "Davlat ishtirokidagi korxonalarni isloh qilishni jadallashtirish hamda davlat aktivlarini xususiylashtirishga oid chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 2022-yil 8-apreldagi PF-101-son "Tadbirkorlik muhitini yaxshilash va xususiylashtirish orqali barqaror iqtisodiy o'sish uchun shart-sharoitlar yaratish borasidagi navbatdagi islohotlar to'g'risida"gi farmonlari, 2006-yil 24-iyuldagi PQ-424-son "Davlat aktivlariga ega ayrim yirik aksiyadorlik kompaniyalari kengashlarining tarkiblarini tasdiqlash to'g'risida"gi qarori, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 3-apreldagi 139-son "Davlat muassasalari va davlat ishtirokidagi korxonalarni qayta tashkil etish va tugatishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori va mazkur sohaga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi.** Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. "Demokratik va huquqiy jamiyatni ma'naviy-axloqiy va madaniy-ma'rifiy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish" ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

**Muammoning o'rganilganlik darajasi.** Aksiyadorlik jamiyatlari samaradorligini oshirishda korporativ madaniyatni rivojlantirish masalasiga xorijlik iqtisodchi olimlardan D.Norton, D.Meyster, M.Veber, T.Parsons, S.Fey, Wei Yi, D.Kang, M.Boussebaa, T.Kotter, Y.Xentse, R.Kaplan, D.Abdelzاهر, R.Nyuur, R.Wuthisatian, A.Jha, C.Labarca, R.Orcos, G.Bexar, M.Demmler, J.Hassard va boshqalar o'z ilmiy izlanishlarida e'tibor qaratganlar<sup>3</sup>. Bu masala

---

<sup>3</sup> Kaplan R.S., Norton D.P. The Balanced Score card: Translating Strategy into Action. – Harvard Business School Press, 1996. – 89 p.; Meister D.G. Corporate Governance und Compliance-Management: für Versicherung sunternehmen; vor dem Hintergrund der Umsetzung von Solvency II. – AV Akademikerverlag, 2012.; Weber Max. The Theory of Social and Economic Reform, New York: Free Press, 1947.; Парсонс Т. О структуре социального действия / под ред. В. Ф. Чесноковой, С. А. Белановского. — М.: Академический проект, 2018. — 435 с. — ISBN 978-5-8291-2254-6.; Fey C. & Denison D. (2003). Organizational Culture and Effectiveness: Can American Theory Be Applied in Russia? Organization Science, 14(6), 686–706. 130.; Wei Y., Kang, D. & Wang, Y. (2019). Geography, culture, and corporate innovation. Pacific-Basin Finance Journal, 56, 310–329. DOI: 10.1016/j.pacfin.2019.06.010.; Boussebaa M. From Cultural Differences to Cultural Globalization: towards a New Research Agenda in CrossCultural Management Studies // Critical Perspective on International Business. June 2020. DOI: <https://doi.org/10.1108/spoib-01-2020-0003>.; Kotter J.P. Corporate Culture and Performance. – Free Press, 2009. – 224 p. 113; Йоахим Хентце, Андреас Каммель. Проблемы теории и практики управления. «Проблемы культуры управления многонациональными предприятиями», №1. 1995 г.; Abdelzاهر D., Fernandez W.D., Schnepfer W.D. Legal Rights, National Culture and Social networks: Exploring the Uneven Adoption of United Nations Global Compact // International Business Review. 2019. Vol. 28, iss. 1. P. 12–24. doi: <https://doi.org/10.1016/j.ibusrev.2018.05.001>.; Nyuur R., Brecic R., Murphy P. Managerial Perceptions of Firms' Corporate Sustainability Strategies: Insights from Croatia // Sustainability. 2020. Vol. 12, Iss. 1. DOI: <https://doi.org/10.3390/su12010251>.; Thanetsunthorn N. & Wuthisatian, R. (2019). Understanding Trust across

MDH mamlakatlari iqtisodchi olimlaridan A.Arapov, M.Janoskova, I.Kovalenko, I.Shevchenko, N.Zayseva, Ye.Kudryavseva, A.Stepanov, M.Kevin, Ye.Juravlyova, Ye.Vlasova, Ye.Akopova, A.Dementeva, G.Arhangelskiy, X.Ksenofontova, I.Bocharova, O.Makarova, A.Murichev va boshqalarning ilmiy ishlarida o‘rganilgan<sup>4</sup>.

O‘zbekiston Respublikasida aksiyadorlik jamiyatlari samaradorligini oshirishda korporativ madaniyatni rivojlantirishning nazariy va amaliy asoslari N.Q.Yo‘ldoshev, B.Berkinov, D.S.Qosimova, B.Yu.Xodiev, D.Suyunov, M.Xamidulin, N.Rasulov, Z.Ashurov, E.Xoshimov, M.G.Umarxodjaeva, M.M.Tashxodjaev, Sh.Muxamadjanov<sup>5</sup>ning ilmiy ishlarida o‘rganilgan.

---

Cultures: an Empirical Investigation. *Review of International Business and Strategy*, 29(4), 286–314. DOI: 10.1108/RIBS-12-2018-0103.; Jha, A., Kim Y. & Gutierrez-Wirsching, S. (2018). Formation of cross-border corporate strategic alliances: The roles of trust and cultural, institutional, and geographical distances. *Journal of Behavioral and Experimental Finance*, 21, 22–38. DOI: 10.1016/j.jbef.2018.10.003.; Labarca, C., Ruiz, P.A. (2020). Cultural and Global Perspectives to Relationship Management in International Public Relations: The Sino-Chilean Case Study. *International Communication Gazette*. DOI: 10.1177/1748048520929817; Orcos, R., Palomas, S. (2019). The Impact of National Culture on the Adoption of Environmental Management Standards: The Worldwide Diffusion of ISO 14001. *Cross Cultural & Strategic Management*, 26(4), 546–566. doi: 10.1108/ccsm-10-2018-0168; Бехар Г., Голдстейн Дж. Дело не в кофе. Корпоративная культура Starbucks. USA: Howard Behar, 2007. С. 16; Лайкер Дж., Хосеус М. Корпоративная культура Toyota. М. : Альпина Паблишерз, 2011. С. 27–33.; Demmler M., Ortiz R., Solis A.U. Comparing Corporate Cultural Profiles Using the Cultural Dimensions of Hofstede // *Journal of Business and Management Sciences*. 2018. Vol. 6. Issue 2. P. 28–35. <http://doi.org/10.12691/jbms-6-2-1>.; Hassard J., Sharifi S. Corporate Culture and Strategic Change // *Journal of General Management*. 1989. Vol. 15. Issue 2. P. 4–19. <http://doi.org/10.1177/030630708901500201>

<sup>4</sup> Арапов А.В. Формирование корпоративной культуры и ее значение для управления компанией // *Экономика, предпринимательство и право*. 2013. Т. 3. № 1. С. 26–30. URL: <https://creativeconomy.ru/lib/8898>.; Janoskova M., Csikosova A. Corporate Culture as One of the Factors of Global Management in Multinational Corporation // 2nd International Scientific Conference of the Poprad-Economic-and-Management-Forum. Poprad, Slovakia, 2019.; Зайцева Н.А. Роль корпоративной культуры в разработке стратегии развития предприятий, функционирующих в условиях продолжающейся пандемии Ковид-19 // *Российские регионы: взгляд в будущее*. 2021. Т. 8. № 2. С. 35–53. URL: <https://www.elibrary.ru/item.asp?id=46522004>.; Кудрявцева Е.И. COVID-19 как индикатор корпоративной культуры: опыт малых предприятий // *Современный менеджмент: проблемы и перспективы. Сборник статей по итогам XVI международной научно-практической конференции*. Санкт-Петербург, 2021. С. 680–684. URL: <https://www.elibrary.ru/item.asp?id=45790749>.; Степанов А.А., Савина М.В. Корпоративная культура – детерминанта активизации инновационного поведения персонала организации // *Креативная экономика*. 2019. Т. 13. № 10. С. 1929–1942. <http://doi.org/10.18334/ce.13.10.41235>.; Кевин М. Рецепты корпоративной культуры: как изменить привычное поведение / М. Кевин, Томсон. Спб.: Баланс бизнес букс, 2005 - 272с. 209.; Журавлёва Е.А. Методы диагностики корпоративной культуры предприятия/ *Вестник РУДН: Серия Инженерные исследования №1*. - М.: Изд-во РУДН, 2007.; Журавлёва Е.А. Механизм трансформации корпоративной культуры/ *Соискатель №1(36) 2007: Спецвыпуск научного журнала «Труд и социальные отношения»*, 2007.; Власова Е.Ф. Корпоративная культура как механизм управления / XI Всероссийская научно-практическая конференция, Гуманитарный университет, 10-11 апреля 2008 года: Доклады / Редкол.: Л.А. Закс и др.: В 2 т. – Екатеринбург : Гуманитарный университет, 2008. – Т1. – С. 431-433.; Акопова Е. Корпоративная культура организации: принципы ESG в эпоху цифровизации // *Гуманитарные, социально-экономические и общественные науки*. 2022. №1. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/korporativnaya-kultura-organizatsii-principy-esg-v-epohu-tsifrovizatsii> (дата обращения: 25.05.2022).; Дементьева А.Г. Корпоративное управление: Учебник / А.Г. Дементьева. - М.: Магистр, 2018. - 315 с.; Архангельский Г.А. Корпоративный тайм-менеджмент. Энциклопедия решений. — М.: Альпина Паблишер. 2019. 212 с.; Ксенофонтowa X.3. Корпоративный менеджмент. Учебник. — М.: КноРус. 2020. 314 с.; Бочарова И.Ю. Корпоративное управление / И.Ю. Бочарова. - М.: ИНФРА-М, 2021. - 368 с.; Макарова О. Корпоративное управление в АО с государственным участием / Ольга Макарова. - М.: LAP Lambert Academic Publishing, 2021. - 252 с.; Мурычев А.В. Качество корпоративного управления как фактор повышения конкурентоспособности / А.В. Мурычев. - М.: Синергия, 2020. - 128 с.

<sup>5</sup> N.Q.Yo‘ldoshev va boshqalar, *Menagement. O‘quv qo‘llanma (bakalavriat uchun) “IQTISOD-MOLIYA”*, Т: 2009 у. 214 б; Беркинов Б.Б. Корпоративные структуры (Основы создания и управления). – Т.: Изд-во Нац. б-ки Узбекистана им. А.Наваи, 2005. – 132 с.; Xodiev B.Yu., Berkinov B.B. *Korporativ boshqaruv: o‘quv qo‘llanma*. – Т.: «ADIB», 2010. – 190 б; Kosimova D.S. Forming a management system of organizational culture of the

**Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi.** Dissertatsiya ishi Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti ilmiy tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq FM-1-sonli "O'zbekistonda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning makroiqtisodiy barqarorligi va prognozlashtirilishini ta'minlashning ilmiy-uslubiy asoslari va uslubiyatlarini takomillashtirish" mavzusidagi fundamental loyiha doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** aksiyadorlik jamiyatlari samaradorligini oshirishda korporativ madaniyatni rivojlantirish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:**

korporativ madaniyatning mohiyati va uning aksiyadorlik jamiyatlarida shakllanishi jarayonini tadqiq etish;

aksiyadorlik jamiyatlarida korporativ madaniyatni samarali boshqarish, uning maqsadlari, vazifalari va asosiy tamoyillarini o'rganish;

xorijiy kompaniyalarda korporativ madaniyatning shakllanish jarayonlarini o'rganish;

aksiyadorlik jamiyatlari samaradorligini oshirishda korporativ madaniyatning ta'sirini baholash;

aksiyadorlik jamiyatlarida korporativ madaniyat samaradorligini oshirish ko'rsatkichlarini tahlil qilish;

aksiyadorlik jamiyatlarida korporativ madaniyatni rivojlantirish istiqbollari ko'rsatib berish;

aksiyadorlik jamiyatlari boshqaruvini takomillashtirishda korporativ madaniyatni rivojlantirish yo'nalishlarini taklif etish;

aksiyadorlik jamiyatlarida korporativ madaniyat samaradorligi ko'rsatkichlarini ekonometrik tadqiqini amalga oshirish;

aksiyadorlik jamiyatlari samaradorligini oshirishda korporativ madaniyatni rivojlantirish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqish.

**Tadqiqotning obyekti** sifatida "Uzsalaman" va "Maxam-Chirchiq" aksiyadorlik jamiyatlarining korporativ faoliyati olingan.

---

enterprise - NVEO-NATURAL VOLATILES & ESSENTIAL OILS, 2021. <https://www.nveo.org/index.php/journal/article/view/1020>; Suyunov D., Xoshimov E. Korporativ boshqaruv modellari: konseptual jihlatlar, zamonaviy tendensiyalar va konvergensiya imkoniyatlari. // "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" ilmiy elektron jurnali. 4-son, iyul-avgust, 2017 yil.; Suyunov D.X. Korporativ boshqaruv mexanizmi: muammo va yechimlar. Monografiya. – T.: Akademiya, 2006. – 116 b.; Xamidulin M.B., Umarxodjayeva M.G., Ismailov A.R. Korporativ boshqaruv-2. Toshkent-Iqtisodiyot. 2019.; Rasulov N. Korporativ tuzilmalarda innovatsion jarayonlarni strategik boshqarish uslubiyotini takomillashtirish. 08.00.13 – "Menejment (iqtisodiyot fanlari)". Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati. – T.: TDIU, 2020 y.; Ashurov Z. Aksiyadorlik korxonalarida korporativ boshqaruvning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish. 08.00.13 – "Menejment" ixtisosligi bo'yicha iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. – T., 2019. – 72 b.; M.M.Tashxodjayev va boshqalar. Korporativ madaniyat. Darslik. – T.: «Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi», 2021. – 204 b.; Мухаммаджанов Ш.С. Корпоративное управление и его развитие в Узбекистане // Экономика Центральной Азии. – 2021. – Том 5. – № 2. – С. 207-224. – doi: 10.18334/asia.5.2.112020.



**Tadqiqotning predmetini** aksiyadorlik jamiyatlarida korporativ madaniyatni yaratish va uni rivojlantirish jarayonlarida yuzaga keluvchi iqtisodiy munosabatlar hisoblanadi.

**Tadqiqotning usullari.** Dissertatsiyada induksiya va deduksiya, tahlil va sintez, ekspert baholash, statistik tahlil, tizimli yondashuv, qiyosiy tahlil, ijtimoiy so‘rovlar o‘tkazish, iqtisodiy-matematik modellashtirish va ekonometrik tahlil usullaridan foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

uslubiy yondashuvga ko‘ra “korporativ madaniyat” tushunchasi uning tabiatidagi ikkiyoqlamalilik – korporativ birdamlikni shakllantirishga yo‘naltirilganlik, aksiyadorlar va xodimlari harakatini muvofiqlashtirish, qiymat-me‘yoriy korporativ chegaralarni belgilash hamda aksiyadorlik jamiyatlarining korporativ madaniyatini rasmiylashtirish va korporativ o‘zaro munosabatlarni standartlashtirishning boshqaruv mexanizmlaridan foydalanish bilan bog‘liq xususiyati jihatidan takomillashtirilgan;

“Uzsalaman” va “Maxam-Chirchiq” aksiyadorlik jamiyatlarida o‘zaro munosabatlardagi korporativ nizolar va ularning ijtimoiy-madaniy jihatlariga ko‘ra korporativ madaniyat darajasini aniqlashtirish va korporativ madaniyat salohiyatini baholashning “yuqori daraja” [ $0,71 \leq KM \leq 1,0$ ], “o‘rta daraja” [ $0,51 \leq KM \leq 0,7$ ], “quyi daraja” [ $0 \leq KM \leq 0,5$ ] mezonlari chegaralari ishlab chiqilgan;

“Uzsalaman” va “Maxam-Chirchiq” aksiyadorlik jamiyatlarida korporativ madaniyat munosabatlari yetarli darajada shakllantirilmaganligi ta’sirida vujudga keluvchi kadrlar qo‘nimsizligining yo‘l qo‘yilishi mumkin bo‘lgan chegarasi ( $0,1 \leq KQ \leq 0,25$ ) aniqlanib, mazkur chegaradan chetlanishlarning turli darajalarida qo‘llaniluvchi tavsiviy korporativ boshqaruv dastaklari asoslangan;

korporativ madaniyat rivojlanish darajasining korxonada tovar mahsuloti ishlab chiqarish hajmiga ta’sirining ko‘p omilli ekonometrik modeli asosida 2026-yilga qadar o‘rta muddatli prognozi ishlab chiqilgan.

**Tadqiqotning amaliy natijasi quyidagilardan iborat:**

aksiyadorlik jamiyatlarida korporativ madaniyatni samarali boshqarish tafsilotlari ochib berilgan;

korporativ madaniyatni o‘lchash ko‘rsatkichlari va uning potensialini baholash mezonlari ishlab chiqilgan;

aksiyadorlik jamiyatlarida kadrlar barqarorligini oshirish maqsadida korporativ boshqaruv dastaklari ishlab chiqilgan;

korporativ madaniyat rivojlanish darajasining korxonaning mahsulot ishlab chiqarish hajmiga ta’sirini o‘rganish bo‘yicha ko‘p omilli ekonometrik model ishlab chiqilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi.** O‘zbekiston davlat aktivlarini boshqarish agentligi, O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma’lumotlari hamda “Uzsalaman” va “Maxam-Chirchiq” aksiyadorlik jamiyatlari rasmiy veb-saytlaridan olingan ma’lumotlar, ishda qo‘llanilgan mulohazalar va usullarning ishonchliligi undagi ma’lumotlarning rasmiy manbalardan, ya’ni O‘zbekistonda faoliyat yuritayotgan aksiyadorlik jamiyatlari hisobotlaridan olinganligi va

ularning aksiyadorlik jamiyatlari ishlab chiqarish faoliyatiga joriy qilinganligi bilan belgilanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati ishlab chiqilgan takliflardan O‘zbekistonda faoliyat yuritayotgan aksiyadorlik jamiyatlarida korporativ madaniyatni samarali boshqarishning nazariy va uslubiy jihatlari o‘rganilgan holda uni rivojlantirish bo‘yicha olib boriladigan tadqiqot ishlarida, aksiyadorlik jamiyatlari korporativ madaniyatini huquqiy-me‘yoriy hujjatlar asosida tartibga solishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati, ishlab chiqilgan taklif va tavsiyalardan aksiyadorlik jamiyatlarida korporativ madaniyatni boshqarishning tizimli usullarini joriy etish, aksiyadorlik jamiyatlarining iqtisodiy samaradorligini yuksaltirish, aksiyadorlik jamiyatlarida korporativ madaniyatni tashkil etish uchun me‘yoriy hujjatlar yaratishda, shuningdek, aksiyadorlik jamiyatlarida korporativ madaniyatni samarali boshqarish bo‘yicha amaliy chora-tadbirlarni ishlab chiqishda foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Aksiyadorlik jamiyatlari samaradorligini oshirishda korporativ madaniyatni takomillashtirish bo‘yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

uslubiy yondashuvga ko‘ra “korporativ madaniyat” tushunchasi uning tabiatidagi ikki yoqlamalilik – korporativ birdamlikni shakllantirishga yo‘naltirilganlik, aksiyadorlar va xodimlari harakatini muvofiqlashtirish, qiymat-me‘yoriy korporativ chegaralarni belgilash hamda aksiyadorlik jamiyatlarining korporativ madaniyatini rasmiylashtirish va korporativ o‘zaro munosabatlarni standartlashtirishning boshqaruv mexanizmlaridan foydalanish bilan bog‘liq xususiyati jihatidan takomillashtirishga oid nazariy-uslubiy materiallardan oliy ta‘lim muassasalari talabalari uchun tavsiya etilgan “Korporativ boshqaruvga kirish” nomli darsligini tayyorlashda foydalanilgan (Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti rektorining 2023-yil 26-iyundagi 211-son buyrug‘i). Mazkur taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida oliy ta‘lim muassasalari talabalari va bo‘lg‘usi mutaxassislariga aksiyadorlik jamiyatlarida korporativ madaniyatga ta’sir etuvchi omillarni tahlil qilish, korxonaning ichki muhitini yaxshilash va boshqarish, korxonani inqirozga qarshi kurashish strategiyasini ishlab chiqishda nazariy hamda amaliy bilimlarni yanada chuqurlashtirishga, yangi bilim va ko‘nikmalarning hosil bo‘lishiga imkon yaratilgan;

“Uzsalaman” va “Maxam-Chirchiq” aksiyadorlik jamiyatlarida o‘zaro munosabatlardagi korporativ nizolar va ularning ijtimoiy-madaniy jihatlariga ko‘ra korporativ madaniyat darajasini aniqlashtirish va korporativ madaniyat salohiyatini baholashning “yuqori daraja”  $[0,71 \leq KM \leq 1,0]$ , “o‘rta daraja”  $[0,51 \leq KM \leq 0,7]$ , “quyi daraja”  $[0 \leq KM \leq 0,5]$  mezonlari chegaralari “Maxam-Chirchiq” AJ va “Uzsalaman” AJ faoliyatida foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Savdo-sanoat palatasining 2023-yil 30-oktabrdagi CCI-7/15-son ma’lumotnomasi). Mazkur taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida 2022-yilda 2021-yilga nisbatan “Uzsalaman” AJda mehnat unumdorligini 13,6%ga, “Maxam-Chirchiq” AJda esa 11,8 %ga oshirishga erishilgan;

“Uzsalaman” va “Maxam-Chirchiq” aksiyadorlik jamiyatlarida korporativ madaniyat munosabatlari yetarli darajada shakllantirilmaganligi ta’sirida vujudga keluvchi kadrlar qo’nimsizligining yo‘l qo‘yilishi mumkin bo‘lgan chegarasi ( $0,1 \leq KQ \leq 0,25$ ) aniqlanib, mazkur chegaradan chetlanishlarning turli darajalarida qo‘llaniluvchi tavsiyaviy korporativ boshqaruv dastaklaridan foydalanish taklifi “Maxam-Chirchiq” AJ va “Uzsalaman” AJning korporativ boshqaruv faoliyatiga joriy etilgan (O‘zbekiston Respublikasi Savdo-sanoat palatasining 2023-yil 30-oktabrdagi CCI-7/15-son ma’lumotnomasi). Mazkur taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida 2022-yilda “Uzsalaman” AJda tovar ishlab chiqarish hajmini 627,2 mln.so‘mga, “Maxam-Chirchiq” AJda esa 3461 mln.so‘mga oshirishga erishilgan;

korporativ madaniyat rivojlanish darajasining korxonada tovar ishlab chiqarish hajmiga ta’sirining ko‘p omilli ekonometrik modeli asosida 2026-yilga qadar ishlab chiqilgan o‘rta muddatli prognoz ko‘rsatkichlaridan “Uzsalaman” va “Maxam-Chirchiq” aksiyadorlik jamiyatlarining istiqboldagi rivojlanish dasturlarini ishlab chiqishda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Savdo-sanoat palatasining 2023-yil 30-oktabrdagi CCI-7/15-son ma’lumotnomasi). Mazkur taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida “Maxam-Chirchiq” AJ bo‘yicha tuzilgan ko‘p omilli ekonometrik model korxonada tovar sifati (lny) 96,71 foizga, “Uzsalaman” AJda esa tovar sifati (lny) 86,69 foizga teng bo‘lib, ko‘p omilli ekonometrik modelga kiritilgan omillarga bog‘liq ekanligi aniqlangan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Mazkur tadqiqot natijalari 4 ta xalqaro va 6 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida ma’ruza qilingan va muhokamadan o‘tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e’lon qilinishi.** Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 19 ta ilmiy ish chop etilgan, shundan O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyalarining asosiy ilmiy natijalarini chop etish uchun tavsiya etilgan ilmiy jurnallarda 7 ta maqola, jumladan, 6 tasi respublika va 1 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya ishi kirish, 3 ta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiya hajmi 144 betni tashkil etadi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning kirish qismida tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi, vazifalari, obyekti va predmeti tavsiflangan, respublikada fan va texnologiyalarni rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi, amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati yoritib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy etish, nashr qilingan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan.


Dissertatsiyaning **“Aksiyadorlik jamiyatlarida korporativ madaniyatni shakllantirishning nazariy asoslari”** deb nomlangan birinchi bobida korporativ madaniyat tushunchasi va uning aksiyadorlik jamiyatlarida shakllantirish zarurligi, aksiyadorlik jamiyatlarida korporativ madaniyatni rivojlantirishning maqsadi, vazifalari va tamoyillari, xorijiy olimlarning aksiyadorlik jamiyatlarining iqtisodiy

samaradorligiga korporativ madaniyatning ta'sirini o'rganish bo'yicha qarashlari tadqiq etilgan.

Bugungi kunga kelib dunyo iqtisodiyoti shiddat bilan rivojlanib bormoqda. Bunda yirik korxonalar, korporatsiyalar va kompaniyalarning o'rni beqiyosdir. Ayniqsa ularning boshqaruv faoliyatini to'g'ri va samarali tashkil etish dolzarb masalalardan biri bo'lib qolmoqda. Takomillashgan korporativ boshqaruv natijasida qo'shilgan qiymat va sof foydaning sezilarli darajada ko'payishi, samaradorlikning ortishi va riskning kamayishi yuz berishi turli tadqiqotlarda o'z aksini topgan. Xususan, bir qator yetakchi ekspertlar tomonidan o'tkazilgan tadqiqot natijalari ko'rsatishicha, samarali korporativ boshqaruv yo'lga qo'yilgan kompaniyalarda iqtisodiy qo'shilgan qiymat korporativ boshqaruv standartlariga amal qilmaydigan kompaniyalarga nisbatan 8,5 foizga yuqori bo'lgan.

Xorijiy olim E.Sheynning fikricha<sup>6</sup> korporativ madaniyatni tashqi muhitga moslashish va ichki integratsiya muammolarini hal qilishni o'rganayotganda ma'lum bir guruh tomonidan o'z-o'zidan shakllangan, o'rganilgan yoki ishlab chiqilgan asosiy harakatlarning to'plami deb ta'riflanadi.

Aksiyadorlik jamiyatlarining korporativ madaniyati, ularning rivojlanishiga ta'sir qiluvchi muhim omil sifatida ko'rinadi. Bu holat, ushbu sohaning o'ziga xos xarakteristikalariga, taklif etilayotgan mahsulotlarning turlari va sifatiga, innovatsion darajaga hamda aksiyadorlik jamiyatlarining ijtimoiy hamda korporativ javobgarliklari va rag'batlantirish mexanizmlariga chambarchas bog'liqdir.



**1-rasm. Aksiyadorlik jamiyatlarida korporativ madaniyatni shakllanishidagi ishtirokchilar<sup>7</sup>**

<sup>6</sup> Шейн Э. Корпоративная культура и лидерство. – СПб.: Питер, 2011.248с.

<sup>7</sup> Tadqiqot natijalari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

Barcha aksiyadorlar o'zlarining milliy qadriyatlarini boshqa xalqlarnikidan yuqori deb hisoblamasligi uchun taniqli tendensiya bo'lishi tabiiy. Shunday qilib, turli millat vakillari o'rtasidagi muloqotga to'sqinlik qiladigan millatchilik illatini bartaraf etish lozim. Madaniy tafovutlar juda murakkab hodisa bo'lganligi sababli, mutaxassislar va boshqaruv kadrlarini tayyorlashning asosiy yo'nalishi aniq harakatlarga, madaniy o'ziga xoslik bilan belgilanadigan me'yorlarga, alohida hodisalar emas, balki turli madaniyatlarning to'qnashuvi natijasida yuzaga keladigan vaziyatlarni hisobga olgan holda bo'lishi kerak. Aksiyadorlik jamiyatlari missiya bayonoti korxonalar, shuningdek, sifat menejmenti tizimiga ta'sir qiladi.

1-rasmga ko'ra, korporativ madaniyatni shakllanishi va boshqaruv samarali bo'lishi uchun turli darajadagi shaxslar korxonada xo'jalik faoliyatining o'sishiga hissa qo'shishi kerak. Shunday ekan, barcha aksiyadorlar o'zlarining milliy qadriyatlarini boshqa xalqlarnikidan yuqori deb hisoblamasligi uchun taniqli tendensiya bo'lishi tabiiy. Shunday qilib, turli millat vakillari o'rtasidagi muloqotga to'sqinlik qiladigan millatchilik illatini bartaraf etish lozim. Madaniy tafovutlar juda murakkab hodisa bo'lganligi sababli, mutaxassislar va boshqaruv kadrlarini tayyorlashning asosiy yo'nalishi aniq harakatlarga, madaniy o'ziga xoslik bilan belgilanadigan me'yorlarga, alohida hodisalar emas, balki turli madaniyatlarning to'qnashuvi natijasida yuzaga keladigan vaziyatlarni hisobga olgan holda bo'lishi kerak. Aksiyadorlik jamiyatlari missiya bayonoti korxonalar, shuningdek, sifat menejmenti tizimiga ta'sir qiladi. Muallifning fikricha, aksiyadorlik jamiyatlarida korporativ madaniyatning shakllanishiga va umuman biznesga katta ta'sir ko'rsatadigan omillari mavjud bo'lib, ulardan birinchisi milliy madaniyat hisoblanadi. Bu omil, xalqaro bozorga faoliyat ko'rsatadigan transmilliy korporatsiyalar uchun juda muhimdir. Ikkinchi omil bu mehnat va boshqaruv xulq-atvor standartlarida aniqlangan madaniy farqlar, ko'p aksiyadorlar xalqaro aloqalar jarayonida o'xshash munosabatlarni izlaydi va fikrlash, hissiy idrok, xulq-atvor va muloqotdagi madaniy farqlarni ko'radi.

Aksiyadorlik jamiyatlari xodimlarining maoshi qanchalik yuqori bo'lsa, uning ijtimoiy soha fondidagi ulushi shunchalik katta bo'ladi, bu o'z-o'zidan kasbiy o'sish va martaba qilish istagi uchun juda aniq rag'batdir. Ijtimoiy soha fondida xodimning ulushi maxsus hisob varaqda aks ettirilishi va nafaqat ushbu korxonada ishlayotganligi sababli yildan-yilga ko'payib borishi, balki korxonadan olingan iste'mol qilingan ijtimoiy nafaqalar miqdoriga kamayishi kerak. Muayyan hajmgacha to'plangan ulush nafaqaga chiqqan yoki korxonada aksiyalari yoki mahsulotlarini sotib olgan taqdirda xodimga pul ko'rinishida to'lovni talab qilishga imkon beradi.

Aksiyadorlik jamiyatlarida korporativ madaniyatini shakllantirish faqat rahbarlarning ixtiyoriy qarorlari bilan emas, balki ko'p jihatli aksiyadorlar, buyurtmachilar, xodimlarning tasodifiy natijasidan ham kelib chiqadi. Natijada, aksiyadorlik jamiyatlari korporativ madaniyati korxonaning rivojlanish jarayonida ishlab chiqilgan optimal xulq-atvor usullaridan foydalaniladi, ular pirovardida aksiyadorlik jamiyatlarining madaniy paradigmasini tashkil qiladi.

Dissertatsiyaning **“Aksiyadorlik jamiyatlarida korporativ madaniyatni rivojlantirish orqali ularning samaradorligini oshirish holati tahlili”** deb

nomlangan ikkinchi bobida korporativ madaniyatni aksiyadorlik jamiyatlari samaradorligini oshirishga ta'siri va aksiyadorlik jamiyatlarida korporativ madaniyatni rivojlanish holati tahlil qilingan, aksiyadorlik jamiyatlarida korporativ madaniyat samaradorligi baholangan.

Korporativ madaniyat parametrlarini o'zgartirishning murakkabligi bir qator omillarga bog'liq. Korporativ madaniyat parametrlarini o'zgartirishning murakkabligi bir qator omillarga bog'liq. Shunday qilib, jamoa fikrlashdagi bo'lajak o'zgarishlarning murakkab tabiati menejrlardan aksiyadorlik jamiyatining ichki hayotini o'zgartirish uchun ustuvorliklar va qadamlar ketma-ketligini aniq belgilashni talab qiladi. Boshqaruv amaliyotiga yangi rasmiy va norasmiy qoidalar va faoliyat me'yorlarini joriy etish xodimlarning qarshiligini keltirib chiqaradi, bu esa uni bartaraf etish choralarini ishlab chiqish zarurati natijasidir. Ichki tashkiliy muhitning moddiy va nomoddiy jarayonlari va hodisalarini isloh qilish bilan bog'liq moliyaviy xarajatlarni unutmasligimiz kerak. Korporativ madaniyatni o'zgartirish mexanizmini shakllantirishda menejment, shuningdek, transformatsiyalar boshlangan paytdan boshlab aksiyadorlik jamiyat ichidagi muhitni o'zgartirish uchun samarali vositalarni olishgacha bo'lgan ma'lum vaqt kechikishini hisobga olishi shart.

Aksiyadorlik jamiyatlarining korporativ madaniyatining o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olmasdan samarali boshqarish mumkin emas. Korporativ madaniyat xodimlarning samaradorligini maksimal darajada oshirishga va shu bilan korxonaning yuqori rentabelligini ta'minlashga imkon beradi. Korporativ madaniyatni tashkil qilishda korxonada mehnat qilayotgan ishchilarning ma'lumoti va yoshi ham muhim hisoblanadi. Sababi korporativ nuqtai nazardan olib borilayotgan siyosat ularga turli xil ta'sir etishi mumkin.

Korporativ madaniyat ta'siri doirasida ishchilarning barqarorligi turli xil sohalarda turlicha amal qiladi. Xodimlarning barqarorligi darajasi eng kamida 15-20% ni tashkil etmoqda. Korxonalarda korporativ tadbirlarni amalga oshirish bevosita korporativ barqarorlikka ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Quyidagi jadvalda "Maxam-Chirchiq" aksiyadorlik jamiyati aksiyadorlari, kuzatuv kengashi va menejrlarning korporativ madaniyati darajasini baholash natijalarini ko'rib o'tamiz.

"Uzsalaman" va "Maxam-Chirchiq" aksiyadorlik jamiyatlarida o'zaro munosabatlardagi korporativ nizolar va ularning ijtimoiy-madaniy jihatlariga ko'ra korporativ madaniyat darajasini aniqlashtirish va korporativ madaniyat salohiyatini baholashning "yuqori daraja", "o'rta daraja", "quyi daraja" mezonlari chegaralari ishlab chiqilgan. Bu mezonlar korporativ madaniyatning turli darajalarini ifodalovchi raqamli ko'rsatkichlar asosida belgilangan. Ular quyidagicha taqsimlangan:

Yuqori daraja  $0,71 \leq KM \leq 1,0$  - bu daraja aksiyadorlik jamiyatida korporativ madaniyatning eng yuqori darajada rivojlanganligini ko'rsatadi. Bu holatda, korporativ nizolar kamdan-kam uchraydi va ularning ijtimoiy-madaniy jihatlari ijobiy tarzda hal etiladi. Shuningdek, korporativ madaniyatning salohiyati yuqori baholanadi.

O‘rta daraja  $0,51 \leq KM \leq 0,7$  – bu daraja o‘rtacha darajada rivojlangan korporativ madaniyatni ifodalaydi. Bu yerda korporativ nizolar va ularning ijtimoiy-madaniy jihatlariga ko‘ra muammolar mavjud, lekin ularni hal qilish imkoniyatlari o‘rta darajada bo‘ladi.

Quyi daraja  $0 \leq KM \leq 0,5$  – bu daraja aksiyadorlik jamiyatida korporativ madaniyatning eng past darajasini anglatadi. Bu yerda korporativ nizolar tez-tez uchraydi va ularning ijtimoiy-madaniy jihatlariga ko‘ra hal etishda muammolar kuzatiladi. Korporativ madaniyat salohiyati past darajada deb baholanadi.

Bu mezonlar orqali aksiyadorlik jamiyatlarining korporativ madaniyat darajasini baholash va ularning ichki munosabatlari hamda ijtimoiy-madaniy jihatlarini tahlil qilish mumkin bo‘ladi. Bu esa korxonaning umumiy samaradorligi va barqarorligini oshirishda muhim ahamiyatga ega (1-jadval).

Jadval ma’lumotlaridan ko‘rinib turibdiki, aksiyadorlik jamiyati aksiyadorlari, kuzatuv kengashi va menejerlarning korporativ madaniyati darajasini ekspertlar tomonidan baholash bo‘yicha o‘tkazilgan savolnomasida “Maxam-Chirchiq” aksiyadorlik jamiyati korporativ madaniyat darajasini o‘rtacha 65 ball va “Uzsalaman” aksiyadorlik jamiyati korporativ madaniyat darajasini o‘rtacha 74 deb baholangan.

### 1-jadval

#### “Maxam-Chirchiq” va “Uzsalaman” aksiyadorlik jamiyatlari aksiyadorlari, kuzatuv kengashi, ijroiya organi va menejerlarning korporativ madaniyati darajasini baholash<sup>8</sup>

| №   | Rahbariyat  | Jami 10 ball | “Maxam-Chirchiq” AJ bo‘yicha o‘rtacha ball | “Uzsalaman” AJ bo‘yicha o‘rtacha ball |
|-----|---|--------------|--|---------------------------------------|
| 1.  | Ishchilarning o‘z mutaxassisligi bo‘yicha ishlashi  | 10           | 5  | 6                                     |
| 2.  | Ish haqi bo‘yicha xodimlarning noroziligi   | 10           | 7  | 7                                     |
| 3.  | Korxonaning iqtisodiy barqarorligi  | 10           | 5  | 6                                     |
| 4.  | Aksiyadorlik jamiyati boshqaruvi bo‘yicha ijobiy qarorlar                                       | 10           | 8  | 9                                     |
| 5.  | Aksiyadorlik jamiyati boshqaruvi bo‘yicha qarorlar qabul qilinishida aksiyadorlarning ishtiroki | 10           | 8  | 9                                     |
| 6.  | Aksiyadorlar va menejerlar munosabati   | 10           | 8  | 9                                     |
| 7.  | Korporativ nizolarni bartaraf etilishi  | 10           | 5  | 7                                     |
| 8.  | Aksiyadorlik jamiyatlarida axborot shaffofligi  | 10           | 6  | 7                                     |
| 9.  | Aksiyadorlarning kuzatuv kengashi va ijroiya organlari bilan munosabati                         | 10           | 8  | 8                                     |
| 10. | Rag‘batlantirish tizimi holati  | 10           | 5  | 6                                     |
|     | Jami  | 100          | 65   | 74                                    |

<sup>8</sup>Tadqiqot natijalari asosida tuzilgan.

Shuningdek, o'tkazilgan tadqiqotlarga asoslanib, aksiyadorlik jamiyatlarida korporativ madaniyat mavjud, ammo uni hali ham rivojlantirish va takomillashtirish lozim. Shu maqsadda uni joriy etishni jadallashtirish choralarini, shuningdek, korxonaning korporativ madaniyatini yaxshilashga qaratilgan tavsiyalarni o'z ichiga olgan dastur ishlab chiqilgan.

Aytish mumkinki, korporativ madaniyatni samaradorligini baholash, shuningdek aksiyadorlik jamiyatning asosiy korporativ madaniyat ko'rsatkichlarini oshirish, ishlab chiqarishni optimallashtirish, texnologiyalar va uskunalarni modernizatsiyalash bo'yicha chora-tadbirlar amalga oshirilib, aksiyadorlik jamiyatlarining raqobatbardoshligini ta'minlashga olib keladi.

Dissertatsiyaning **“Aksiyadorlik jamiyatlarida boshqaruv tizimiga korporativ madaniyatni singdirish muammolari va ularni bartaraf etish yo'llari”** deb nomlangan uchinchi bobida aksiyadorlik jamiyatlarida korporativ madaniyat bilan bog'liq muammolar, aksiyadorlik jamiyatlari boshqaruvini takomillashtirishda korporativ madaniyatni samarali vositalaridan foydalanish, aksiyadorlik jamiyatlarida korporativ madaniyat samaradorligi ko'rsatkichlarini ekonometrik tadqiq qilish yoritib berilgan.

Samarali korporativ madaniyatni to'g'ri olib borish aksiyadorlik jamiyatlari faoliyatiga bevosita ta'sir qiladi. Bunday madaniyat aksiyadorlik jamiyatlari muvaffaqiyatining eng muhim omillaridan biri bo'lib, raqobatdosh ustunlikni saqlab turishda muhim hisoblanadi. Shuningdek, u korxonadagi shaxslarning axloqiy fazilatlariga, fidoyiligiga, mehnat unumdorligiga, jismoniy sog'lig'iga va jamoada ishlaydigan odamlarning hissiy farovonligiga ta'sir qiladi.

“Uzsalaman” AJ va “Maxam-Chirchiq” AJ korxonalari ishlab chiqarish samaradorligini baholash uchun iqtisodiy ko'rsatkichlar tizimidan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Aksiyadorlik jamiyatlarning iqtisodiy imkoniyatlarini to'liq tavsiflay oladigan turli ko'rsatkichlardan yoki ko'rsatkichlar tizimidan foydalanish korxonaning samaradorlik darajasini aniq hisoblash imkoniyatini yaratadi.

Bugungi kunda “Uzsalaman” aksiyadorlik jamiyatida ham iqtisodiy samaradorlikni tashkiliy-iqtisodiy, ijtimoiy-iqtisodiy va bozor muhiti omillari tadqiq etish hamda ishga solinmagan ichki imkoniyatlarni ishga solish borasida ishlar olib borilmoqda (2-jadval).

2-jadval ma'lumotlariga ko'ra, “Uzsalaman” AJda kadrlar qo'nimsizligi 2022-yilda 2018-yilga nisbatan kamayganini, hamda 47%ni tashkil etganini ko'rishimiz mumkin. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, korxonada ishchilari asosan, korporativ madaniyat pastligi, olib borilayotgan innovatsion siyosat talablariga javob bera olmayotgani, hamda “Uzsalaman” AJ ning korporativ kodeksi qoidalariga bo'ysunishni xohlamaganlari sababli ishdan bo'shatilgan.

Tadqiqotlarga ko'ra, 2018-2022-yillarda “Uzsalaman” AJ korxonasida korporativ madaniyatni rivojlantirish borasida samarali faoliyat olib borilgan. Xodimlar uchun mehnat sharoitlari yaxshilangan, jamoada ijobiy, iliq ishchi muhit shakllantirilgan. Yangi kelgan ishchilarni jamoaga kirishib ketishi, yangi kasbiy



ko'nikmalarni o'zlashtirishi, shuningdek jamoa a'zolari tomonidan qabul qilingan qadriyatlarni qabul qilib, o'z faoliyatini samarali amalga oshirishi uchun sharoitlar yaratish borasida ishlar amalga oshirilgan. Natijada, qo'nimsizlik sabablariga ko'ra ishdan bo'shaganlarning soni qisqargan. Mazkur omil hisobiga, xususan ishdan bo'shayotgan ishchilarning mehnat unumdorligi va sifat ko'rsatkichlarining pasayishi, hamda yangitdan ishga qabul qilingan ishchilarda adaptatsiya va yangi ish usullariga ko'nikmalar hosil qilish davrida mehnat unumdorligining past bo'lishi ko'rsatkichlarini kamayishi hisobiga ishchilarining o'rtacha mehnat unumdorligi ortgan.

**2-jadval**

**2018-2022-yillarda “Uzsalaman”AJ da kadrlar qo'nimsizligi omili hisobiga mehnat unumdorligi va foyda o'zgarishi<sup>9</sup>**

| №  | Ko'rsatkichlar   | Yillar  |         |         |       |         | 2022-y.<br>2018-<br>y.ga<br>nisb. % |
|----|--|---------|---------|---------|-------|---------|-------------------------------------|
|    |  | 2018    | 2019    | 2020    | 2021  | 2022    |                                     |
| 1. | Qo'nimsizlik sabablariga ko'ra ishdan bo'shaganlar, nafar  | 17      | 13      | 9       | 10    | 8       | 47,0                                |
|    | Jumladan:<br>Korporativ madaniyat pastligi sababli ishdan bo'shaganlar, nafar                      | 5       | 5       | 3       | 2     | 2       | 40,0                                |
|    | Olib borilayotgan innovatsion siyosat sababli ishdan bo'shaganlar, nafar                           | 6       | 3       | 2       | 5     | 3       | 50                                  |
|    | AJ korporativ kodeksi qoidalari sababli ishdan bo'shaganlar, nafar                                 | 6       | 5       | 4       | 3     | 3       | 50                                  |
| 2. | Qo'nimsizlik, %  | 2,2     | 1,5     | 1,2     | 1,0   | 0,8     | 36,4                                |
| 3. | Qo'nimsizlik hisobiga ishchilarning o'rtacha yillik mehnat unumdorligi o'zgarishi, mln.so'm/ishchi | 142,4   | 145,2   | 135,4   | 231,2 | 313,7   | 2,2 marta                           |
| 3. | Ishchi kuchi qo'nimsizligi omili hisobiga ishlab chiqarilmay qolgan mahsulot qiymati, mln.so'm     | 605,2   | 471,9   | 305,1   | 578   | 627,2   | 103,6                               |
| 4. | Ishchi kuchi qo'nimsizligini omilini hisobga olgan holda korxonada foydasi o'zgarishi, mln.so'm    | 21568,2 | 25993,9 | 20795,1 | 40518 | 75350,2 | 3,5 marta                           |

<sup>9</sup> Korxonada ma'lumotlari asosida muallif tomonidan hisoblangan.

AJda ishchilarning o‘rtacha yillik mehnat unumdorligi ko‘rsatkichining o‘shirish sur‘atlari o‘rtacha ish haqining o‘shirish sur‘atlaridan yuqori ekanligi ham, korxonaning barqaror rivojlanayotganligini ko‘rsatadi.

Tadqiqot obyekti hisoblangan “Maxam-Chirchiq” AJda kadrlar qo‘nimsizligi omili hisobiga mehnat unumdorligi va foyda o‘zgarishini tadqiq etadigan bo‘lsak, qo‘nimsizlik sabablariga ko‘ra ishdan bo‘shaganlar soni 2022-yil 34 nafar bo‘lib, mazkur ko‘rsatkich 2018-yilga nisbatan 8 nafarga qisqargan yoki 81%ni tashkil etgan (3-jadval).

Ushbu AJda korporativ madaniyat pastligi sababli ishdan bo‘shaganlar salmog‘i qo‘nimsizlik omillariga ko‘ra 2018-yilda 38,1 % bo‘lsa, bu ko‘rsatkich 2022-yilda 41,2 %ni tashkil etgan. Mazkur holat esa, korxonada korporativ madaniyatni rivojlantirish borasida ishlarni rivojlantirish maqsadga muvofiq ekanligini ko‘rsatadi.

### 3-jadval

#### 2018-2022-yillarda “Maxam-Chirchiq” AJ kadrlar qo‘nimsizligi omili hisobiga mehnat unumdorligi va foydaning o‘zgarishi<sup>10</sup>

| №  | Ko‘rsatkichlar   | Yillar  |         |         |       |         | 2022-y.da<br>2018-y.ga<br>nisb.% |
|----|--|---------|---------|---------|-------|---------|----------------------------------|
|    |  | 2018    | 2019    | 2020    | 2021  | 2022    |                                  |
| 1. | Qo‘nimsizlik sabablariga ko‘ra ishdan bo‘shaganlar, nafar  | 42      | 30      | 78      | 49    | 34      | 81,0                             |
|    | Jumladan:<br>Korporativ madaniyat pastligi sababli ishdan bo‘shaganlar, nafar                      | 16      | 11      | 28      | 20    | 14      | 87,5                             |
|    | Olib borilayotgan innovatsion siyosat sababli ishdan bo‘shaganlar, nafar                           | 11      | 9       | 23      | 11    | 12      | 109,1                            |
|    | AJ korporativ kodeksi qoidalari sababli ishdan bo‘shaganlar, nafar                                 | 15      | 10      | 27      | 18    | 8       | 53,3                             |
